



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA EGRA VA EGMA
TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING
SAMARADORLIGI**

Chirchiq davlat pedagogika universitei

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Urinova Durdona Olimovna

Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti

kafedra o'qituvchisi **Xudayqulova F.B**

fazilatxudayqulova@gmail.com

Annotasiya: *O'shbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish va matematik savodxonlikni oshirish, xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash, xalqaro EGRA va EGMA baholash dasturlari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Xalqaro baholash, dasturlari, prezident farmoni, EGRA, EGMA, TIMSS, PISA, o'qituvchi, o'quvchi, matematika, o'qish, ta'lim tarbiya.*

Kirish: So'nggi yillarda respublikamizda ta'lim sohasiga oid ko'plab o'zgartirishlar kiritilganligini kuzatishimiz mumkin. O'shbu o'zgarishlar 2022-2026—yillar davomida maktab ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorda ham o'z tasdig'ini topadi. Darhaqiqat, bu o'zgarishlardan biri sifatida xalqaro baholash dasturlarining kirib kelishi bilan belgilashimiz mumkin. Boshlang'ich va yuqori sinflar uchun joriy etilgan PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro baholash dasturlarida qatnashib sezilarli darajada yuqori o'rinlardan egallashni maqsad qilinganligidan ham ko'rishimiz mumkin. «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirish maqsad qilib belgaganligi buning isbotidir.



Mamlakatimiz buyuk kelajak sari qadam tashlagan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallab bormoqda. O‘zib kelayotgan avlod tarbiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatish maqsadida turli dastur va texnologiyalardan foydalanish davr talabiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, fan asoslari bo‘yicha chuqur bilim berishga o‘rgatuvchi usullardan foydalangan holda turli zamonaviy, xalqaro dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Respublikamizda so‘nggi yillarda matematika va o‘qish savodxonligini oshirishga ayniqsa katta ahamiyat qaratilmoqda. O‘zbekistonda boshlang‘ich sinflarda o‘qish (EGRA) va matematika ko‘nikmalarini baholash (EGMA) bo‘yicha ilk tadqiqot o‘tkazilayotganligidan ham kuzatishimiz mumkin.

EGRA (The Early Grade Reading Assessment) va EGMA (The Early Grade Mathematical Assessment) — Bu tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasini oshirishga, mantiqiy fikrlash doirasining kengaytirishga, matematik savodxonlikni oshirishga, o‘quv jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu reyting tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo‘llaniladi. Shuningdek, u PISA, TIMSS va PIRLS kabi boshlang‘ich va yuqori sinflar uchun xalqaro baholash dasturlariga dastlabki tayyorlash uchun yaxshi vositadir. EGRA va EGMA tadqiqotlari o‘qish va matematik savodxonlik ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazadigan va o‘quvchilarning kamchiliklarini, bilim darajasini belgilab, boshlang‘ich ta‘limdagi tizimli kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga mo‘ljallangan eng mos yichimli aniqlangan, ilmiy asoslangan modellardir. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Ushbu loyiha 2019-yil 28-sentabrda XTV va USAID o‘rtasida imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to‘g‘risidagi bitimning birinchi komponenti hisoblanadi. O‘zbekistondagi elchi Daniel Rozenblumning aytishicha, EGRA va EGMA boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligi va matematika ko‘nikmalarini baholash uchun oddiy, arzon va kuchli vositadir.



Xulosa: Boshlang'ich sinf o'quvchilarinkng o'qish va matematik savodxonligini oshirishda EGMA va EGRA tadqiqotlaridan foydalanishimiz, o'quvchilarning nutqiy ko'nikma va malakalarini oshirishda, tushunish, mantiqiy tahlil qilishda, shuningdek tanqidiy fikrlash, tahlil va xulosa qilishda, og'zaki hisoblashni rivojlantirish, matematik savodxonlikni oshirishda, mustaqil fikrlash doirasining kengayishida yordam beradi. O'quvchilarni rivojlantirishda ikkala tadqiqotni ham birga holatda olib boorish, tadqiqotlarning matnli va mantiqiy misol, masala va savollarni tushunib yichishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlash joizki xalqaro baholash dasturlariga javob bera oladigan bugungi kun o'quvchisini shakllantirishbosh maqsad sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1 Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son.
2. e-ISSN: 2792-3983 | www.openaccessjournals.eu | Jild: 3-son: 12
3. Mirxalilova N.A. "O'qish savodxonligini oshirishda pirls xalqaro tadqiqotining o'rni" // Maktabgacha va boshlang..ich ta'limning dolzarb masalalari:
4. Kovaleva G S., Krasnovskiy E. A., Krasnokutskaya L. P., Krasnyanskaya K. A. Rossiya RIABA xalqaro qiyosiy o'rganish natijalari // Ta'lim masalalari. - 2004. - 1-son.
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish sifatini tekshirishga bag'ishlangan rus tilidagi sayt [Elektron resurs]. - PYL: http://www.centeroko.ru/pirls06/pirls06_pub.htm/
6. Linda M. Platas, Leanne Ketterlin-Gellar, Aarnout Brombacher, and Yasmin Sitabkhan.